

**“TENGE BANK” ATBDA JISMONIY SHAXSLAR UCHUN EMISSIYA QILINGAN
MILLIY VA XORIIJY VALYUTADAGI BANK KARTALARIGA XIZMAT
KO’RSATISH TO’G’RISIDA
OMMAVIY SHARTNOMA-OFERTA**

I. Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur “Tenge Bank” ATBda jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingan milliy va xorijiy valyutadagi bank kartalariga xizmat ko'rsatish to'g'risida Ommaviy shartnoma-Oferta (bundan buyon matnda – “Shartnoma”) “Tenge Bank” Aksiyadorlik tijorat bankining ommaviy ofertasi (bundan buyon matnda – “Oferta”) va O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 369-moddasi 2-qismiga asosan barcha jismoniy shaxslar bilan quyida qayd etilgan shartlarda Shartnoma tuzish uchun rasmiy ommaviy taklifi hisoblanadi.

1.2. Shartnoma Mijoz tomonidan mazkur Ofertaning 2.2-bandida nazarda tutilgan, Mijozning mazkur Ofertada belgilangan shartlarda Shartnoma tuzishga roziligin tasdiqlaydigan harakatlar amalga oshirilgan paytdan e'tiboran tuzilgan hisoblanadi va kuchga kiradi.

1.3. Ofertaning aktual va oldingi versiyalari quyidagi manzil bo'yicha Bankning rasmiy korporativ saytida joylashtirilgan: <https://tengebank.uz>

1.4. Asosiy atamalar va ta'riflar:

Bank – Mijozlarga chakana xizmatlar ko'rsatadigan «Tenge Bank» ATB bo'linmasi;

Bank kartasi – Bank tomonidan chiqarilgan, to'lov vositasi sifatida foydalaniладigan va o'z egasiga Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'i doirasida yoki belgilangan limit doirasida va O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari shartlarida milliy va xorijiy valyutada operasiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan mahalliy yoki xalqaro to'lov tizimlari to'lov kartasi;

Qo'shimcha karta – Mijoz nomiga qo'shimcha ravishda rasmiy lashtirilgan va Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari doirasida yoki dastlab chiqarilgan Bank kartasi biriktirilgan belgilangan limit doirasida operasiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan bank kartasi;

Tashkilot – Bank tomonidan ish haqini va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, shuningdek pensiyalar, kompensasiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni Tashkilot xodimlari uchun Bank tomonidan chiqarilgan milliy valyutadagi bank kartalariga o'tkazish tizimlarini joriy qilish bo'yicha Bank bilan Shartnoma tuzgan yuridik shaxs, yuridik shaxs tashkil etmagan holda faoliyat yurituvchi tashkilot (vakolatxonalar, filiallar va h.k.) yoki yakka tartibdagi tadbirkor;

Tashkilot xodimi / Mijoz – Tashkilot bilan mehnat yoki fuqarolik-huquqiy munosabatlarini o'rnatgan jismoniy shaxs. Shartnoma qo'llanishi maqsadlarida ushbu ta'rif pensiya va nafaqalar oluvchi shaxslarga, shuningdek O’zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalari va bilim yurtlari talabalari / kursantlari / tinglovchilariga ham joriy qilinadi;

Shaxsni tasdiqlovchi hujjat – O’zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti, shu jumladan, chet elga chiqish uchun biometrik pasporti, shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma yoki harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo'mondoni tomonidan berilgan harbiy xizmatchilarning harbiy guvohnomalari (harbiy majburiyatli fuqarolarning harbiy guvohnomalari bundan mustasno), O’zbekiston Respublikasi ID kartalari, yangi namunadagi haydovchilik guvohnomalari, chet el fuqarosi pasporti yoki chet el fuqarosiga O’zbekiston Respublikasida istiqomat uchun berilgan guvohnoma, fuqaroligi bo'limgan shaxslarga O’zbekiston Respublikasida istiqomat uchun berilgan guvohnoma.

14 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarga bank xizmatlarini taqdim qilish uchun ID kartasi va/yoki biometrik pasport, shu jumladan, chet elga chiqish uchun biometrik pasport shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma hisoblanadi;

Ish haqi – qonun hujjatlariiga asosan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlardan (shu jumladan, pensiyalar va stipendiyalar);

Mijoz – Bankka Kartochka hisobvarag’ini ochish va Bank kartasini chiqarish yoki ular mavjud bo’lgan holatda, xizmatlar olish uchun murojaat qilgan jismoniy shaxs;

Kartochka hisobvarag’i – pul mablag’laridan foydalanishni Bank kartasi orqali amalga oshirish mumkin bo’lgan Mijozning bank hisobvarag’i;

Savdo-servis korxonasi – Bank kartalari qo’llanilgan holda hisob-kitoblar uchun Terminallardan foydalanib tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizasiya qilinishini amalga oshiradigan Savdo-servis korxonasi (yuridik shaxs va/yoki yakka tartibdagi tadbirkor);

Avtorizasiya – to’lov tashkiloti tomonidan nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha telefon, elektron yoki boshqa aloqa vositalari orqali Bank kartasidan foydalanib operasiyalarni amalga oshirish uchun Bank (bank kartasi emitenti) ruxsatnomasini olish tartib-taomili;

Masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish – Mijoz tomonidan telekommunikasiya tizimlaridan foydalanib masofaviy usulda uzatiladigan (olinadigan) elektron farmoyishlar asosida taqdim qilinadigan Bank xizmatlari majmui;

Tranzaksiya – Mijozning o’z Kartochka hisobvarag’i bilan va/yoki Bank kartasi orqali operasiyasi, shu jumladan pul mablag’lari to’lovi, olinishi va boshqa operasiyalar;

PIN-kod – Kartochka hisobvarag’idagi pul mablag’laridan foydalanish huquqini va bank kartasi egasining pul mablag’laridan foydalanishga ruxsatini tasdiqlaydigan shaxsiy identifikasiyalash raqami;

Bank kartasini blokirovka qilish – Bank kartasi faoliyatini vaqtincha to’xtatib qo'yish yoki bekor qilish choralar (bekor qilingan holatda Bank tomonidan Bank kartasi xizmat ko’rsatishga taqdim qilinganida uning olib qo'yilishi nazarda tutiladi);

Bank kartasini blokirovkadan chiqarish – Bank tomonidan Bank kartasi faoliyatini tiklash bo'yicha choralar qabul qilinishi;

Bankomat – Mijozga o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish rejimida amalga oshirilgan operasiyalar bo'yicha chek olingan holda naqd pulsiz to’lovlarni amalga oshirish va naqd pul vositalarini kiritish, foydalanish parollarini almashtirish va Bank kartasi balansi bo'yicha axborot olish imkonini beradigan avtomatlashtirilgan elektron-texnik qurilma;

Terminal – Mijozga tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to’lash, Bankda naqd pul mablag’larini va amalga oshirilgan operasiyalar bo'yicha to’lov cheklarini olish, PIN-kodni almashtirish va Bank kartasi balansi bo'yicha axborot olish imkonini beradigan to’lovlarni amalga oshirish uchun elektron qurilma;

Infokiosk – Mijozga o’z-o’ziga xizmat ko’rsatish rejimida Bank kartasi bilan operasiyalarini amalga oshirish, Savdo-servis korxonasi foydasiga naqd pulsiz to’lovlarni amalga oshirish va boshqa to’lovlarni amalga oshirish, shuningdek PIN-kodni almashtirish, Bank kartasi balansi bo'yicha axborot olish, Bankdagi Kartochka hisobvarag’i holati to’g’risida axborot olish, agar Infokiosk On-line ulanishga ega bo’lsa, Kartochka hisobvarag’ini naqd pul mablag’lari bilan to’ldirish imkonini beradigan avtomatlashtirilgan elektron-texnik qurilma;

Online-hisobvaraq – Prosessing markazi frontal tizimida Mijozning Bank kartasi balansi;

Kontakt-markaz – Mijozga telefon, onlayn-chat, elektron pochta orqali amalga oshirilgan operasiyalar, Bank kartasini blokirovka qilish va h.k. to’g’risida axborot taqdim qilish shaklida masofaviy xizmatlar ko’rsatadigan Bank bo’linmasi;

Telefon so’zlashuvlari uchun nazorat so’zi – Mijoz shaxsi va vakolatlarini tasdiqlash uchun mo’ljallangan shartli so’z yoki belgilar to’plami. Telefon so’zlashuvlari uchun parol Bank tomonidan tasdiqlangan 1-sonli Namuna bo'yicha jismoniy shaxslar uchun milliy valyutada bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko’rsatish uchun arizada Mijoz tomonidan qayd etiladi;

Kartomat – Mijozga Bank xodimlari ishtirokisiz, shu jumladan Bank binosi tashqarisida bank kartalari darhol chiqarilishini amalga oshirish imkonini beradigan avtomatlashtirilgan elektron-texnik qurilma;

Qaydnama – Tashkilot xodimlari ish haqini o’tkazish uchun kerakli rekvizitlarni o’z ichiga olgan Tashkilot moliyaviy hujjati. Qaydnama Bankka elektron shaklda va/yoki qog’oz tashuvchi vositada taqdim qilinadi;

Reestr – Tashkilot tomonidan tuzilgan, Tashkilot xodimlarining F.I.Sh., ularning tabel raqamlari, pasport ma'lumotlari, tug'ilgan sanasi, tug'ilgan joyi, ular propiska qilingan manzil va boshqa majburiy rekvizitlari qayd etiladigan Tashkilot xodimlari ro'yxati;

Tranzit hisobvarag'i – Tashkilotning talab qilib olguncha saqlanadigan asosiy depozit hisobvarag'idan yoki byudjet Tashkilotining Kaznacheylik shaxsiy hisobvarag'idan Tashkilot xodimlarining Kartochka hisobvaraqlariga ish haqini (pensiya, stipendiyalarni) o'tkazish uchun ochilgan bank hisobvarag'i;

Elektron xabarnoma – Bank tomonidan internet va/yoki mobil aloqa orqali Mijozning mobil telefonlariga (SMS, PUSH) va/yoki elektron pochtasiga standart shaklda yuboriladigan qisqa xabarlar;

Chet to'lov tashkiloti – to'lov tizimini identifikasiyalaydigan va uning qoidalarini belgilaydigan tovar belgilariga va (yoki) xizmat ko'rsatish belgilariga egalik huquqiga ega yuridik shaxs (CLICK, PAYME, MUNIS va h.k.);

Komprometasiya – to'lov tizimiga kirish uchun foydalilaniladigan Parol yoki tasdiqlash vositalari faqat Mijozning ulardan foydalaniш huquqiga ega shaxsi tomonidan ishlatalayotganligiga ishonch yo'qotishi;

Kobrending bank kartasi – banklar va turli kompaniyalarning birgalikdagi mahsulotlari. Uyali aloqa operatori, tibbiyot markazi, oziq-ovqat do'koni, aviakompaniya va boshqalar Bank Sherigi sifatida faoliyat yuritishi mumkin;

Shaxsiy ma'lumotlar – elektron, qog'oz tashuvchi va (yoki) boshqa moddiy tashuvchi vositalarda qayd etilgan Mijozga tegishli yoki uni identifikasiyalash imkonini beradigan axborot;

Operasiyalar bo'yicha limit – Kartalardan va/yoki masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimidan foydalanib (Bankda bunday imkoniyat bo'lgan holatda) amalga oshiriladigan Operasiyalar (Topshiriqlar) amalga oshirilishi uchun Bank / Mijoz tomonidan belgilangan cheklov;

Reversal – kommunikasiya xatolari (aloqadagi uzilishlar) holatida yoki Mijoz tovarlar (xizmatlar) xarid qilishni rad qilgan holatda terminal, bankomatda Karta bo'yicha tranzaksiyalar bekor qilinishi yoxud texnik sabablar bo'yicha operasiyalar bekor qilinishi;

Kurerlik xizmati – Mijozlar so'rovnomalari asosida yoki so'rovnomalarisiz (Bank tashabbusiga binoan) Mijozlarga kartalar yetkazib berilishini ta'minlaydigan Bank bilan shartnomaga munosabatlari ega Bank Kureri va/yoki Kurerlik xizmati.

II. Shartnama predmeti

- 2.1. Mijoz tomonidan mazkur Ofertada nazarda tutilgan harakatlar amalga oshirilishi orqali mazkur Ofertaga qo'shilish yo'li bilan tuziladigan Shartnama predmeti Bank tomonidan Kartochka hisobvaraqlari ochilishi, Bank kartalarining chiqarilishi, shuningdek Shartnama shartlari va amaldagi qonun hujjatlariga asosan Kartochka hisobvaraqlari va Bank kartalariga xizmat ko'rsatilishidan iborat.
- 2.2. Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish kanallari orqali bank mahsulotlari va xizmatlari olingan holatda, ariza berish va shartnomaga tuzish masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish kanallarida qayd etilgan holda aksept formatida amalga oshiriladi.
- 2.3. Mijoz Bankka kelganida Oferta shartlariga qo'shilish Mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilish (skanirlangan nusxasi olinadi, asl hujjat qaytariladi), shuningdek Bank tomonidan tasdiqlangan 1-sonli Namuna bo'yicha arizani imzolash orqali Mijoz tomonidan mazkur Bank Ofertasi akseptini olish yoxud masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali so'rovnomani taqdim qilish asosida amalga oshiriladi.

Mijoz mazkur Shartnomani akseptlash orqali Shartnama tuzishini, uning shartlariga roziligini hamda Shartnomaga majburiyatlari va Bank Tariflarini o'ziga qabul qilishini tasdiqlaydi.

- 2.4. Agar Mijoz voyaga yetmagan bo'lsa, Bank tomonidan quyidagi hujjatlar ham talab qilib olinishi mumkin:

- ota-onasi yoki vasiy pasporti nusxasi (voyaga yetmagan shaxslar uchun);

- Mijozga vasiylik tayinlash to'g'risida hujjat (agar qo'llanilsa);
 - Mijozni yuridik salohiyatlari deb e'tirof qilish to'g'risida yoki yuridik salohiyati cheklanganligi to'g'risida hujjat (agar qo'llanilsa);
 - fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan berilgan voyaga yetmagan shaxsning fotosurati bilan ma'lumotnomasi. Ushbu ma'lumotnomadagi fotosurat ham fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organi yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati muhri bilan (muhr bo'lgan holatda) tasdiqlanadi (14 yoshgacha bo'lgan shaxslar uchun).
- 2.5.Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali jismoniy shaxslarning Bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish hamda Kartochka hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish uchun so'rovnomani rasmiylashtirishda Bank tomonidan tasdiqlangan 1-sonli Namuna bo'yicha ariza Mijoz tomonidan to'ldirilmaydi. Bank mobil ilovasida "Ofertaga roziman" virtual (ekran) klavishining bosalishi karta chiqarilishi to'g'risida Ariza imzolanganligi va Bankka uzatilganligini, Mijoz tomonidan mazkur Oferta barcha shartlari so'zsiz qabul qilinganligini (akseptlanganligini) anglatadi.
- 2.6.Ushbu Sharhnomasi-oferta, to'lov tizimi turidan qat'i nazar, Bank va Mijoz o'rtasida 1-sonli Namuna bo'yicha berilgan ariza asosida tuziladi (bitta arizada bir yoki bir necha kartalarni ochish uchun).

III. Kartochka hisobvarag'ini ochish, Bank kartasini chiqarish va foydalanish tartibi

- 3.1.Kartochka hisobvarag'i 1-sonli Namuna bo'yicha ariza berilgan sanadan e'tiboran 2 (ikki) bank kuni mobaynida, bank kartasi esa 5 (besh) bank kuni mobaynida Bank tomonidan ochiladi.
- Ish haqi loyihasi doirasida Bank kartasini rasmiylashtirishda Bank kartasi quyidagi shartlarda ochiladi:
- Bank va Tashkilot o'rtasida Bank tomonidan ish haqini va unga tenglashtirilgan to'lovlarni, shuningdek pensiyalar, kompensasiyalar va boshqa ijtimoiy to'lovlarni (bundan buyon matnda – "ish haqi loyihasi") Tashkilot xodimlari uchun Bank tomonidan chiqarilgan milliy valyutadagi bank kartalariga o'tkazish tizimini joriy qilish to'g'risida Sharhnomasi tuzilgan sharoitda;
 - Tashkilot tomonidan taqdim qilingan reestrda Mijoz to'g'risida ma'lumotlar bo'lishi yoki Bank tomonidan tasdiqlangan Arizada Tashkilotdan Xodim ushbu Tashkilot xodimi / talaba / pensioner ekanligining tasdiqnomasi bo'lishi shart.
- 3.2.Kartalar chiqarish uchun arizalarni qabul qilish Mijoz tomonidan bank bo'linmasiga kelgan holatda yoki Bankka kelmagan holda, masofaviy identifikasiyalashdan majburiy o'tish orqali masofaviy usulda amalga oshirilishi mumkin.
- 3.3.Karta ochish, Kartochka hisobvarag'i bo'yicha bevosita Bankda o'tkaziladigan operasiyalar bevosita Mijoz tomonidan ham, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nomiga vakolatnomasi rasmiylashtirilgan shaxs tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.
- 3.4.Mijoz Bankka o'z nomidan Kartochka hisobvarag'i bo'yicha naqd pulsiz operasiyalarni amalga oshirish uchun hisob-kitob hujjatlarni tuzish huquqini taqdim qiladi. Bank tomonidan Mijoz nomidan hisob-kitob hujjatlari tuzilishi Bank tomonidan belgilangan namuna bo'yicha blanklarda rasmiylashtirilgan va Mijoz tomonidan shaxsan yoki vakolatnomasi asosida faoliyat yurituvchi vakolatli shaxsi tomonidan imzolangan Mijoz arizasi asosida amalga oshiriladi, mazkur Sharhnomaning 4.1.4-bandida belgilangan holatlar, shuningdek Mijoz tomonidan Bank va chet to'lov tashkilotlari masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimlaridan foydalanish orqali elektron to'lovlardan amalga oshiriladigan holatlar bundan mustasno. Mijoz (vakolatli shaxs) imzosi shaxsni tasdiqlovchi hujjatdagi imzo namunasiga muvofiq bo'lishi kerak (shaxsni tasdiqlovchi hujjatda imzo bo'lgan holatda).
- 3.5.Kartochka hisobvarag'i ochilganidan va Bank kartasi chiqarilganidan so'ng Bank tegishli Bank kartasini quyidagi kanallar orqali Mijozga topshiradi:
- bank bo'linmasida;
 - kartomatda;
 - kurerlik xizmati orqali.

Karta olish kanalini tanlash Mijoz tomonidan ariza berishda amalga oshiriladi.

3.6.Bank bo'linmalarida yoki kurerlik xizmati orqali kartalarni berish shaxsni tasdiqlovchi asl hujjat yordamida Mijozni autentifikasiyalash bilan birga amalga oshiriladi, karta berish fakti jurnalda rasmiylashtirilishi yoki Bank tomonidan tasdiqlangan namuna bo'yicha Bank kartasi olinganligi to'g'risida Ariza qayd etiladi.

3.7.Kurerlik xizmati orqali yetkazib beriladigan barcha kartalar muhrlangan konvertda bo'lishi kerak. Bunda, kartani mustaqil ravishda faollashtirish uchun karta maqomi "Blokirovka qilingan" bo'ladi.

Kurerlik xizmati uchun haq to'lash Bank tomonidan amaldagi Tariflarga asosan amalga oshiriladi.

3.8.Mijoz tomonidan bank kartasini kartomat orqali chiqarish buyurtma qilingan holatda, Mijoz Bank mobil ilovasi orqali amalga oshiriladigan QR-kod yordamida identifikasiyalanadi va 2-sonli Ilovaga asosan bank kartasini bevosita kartomatda oladi.

3.9.Bank kartasi qo'llanilgan holda operasiyalar to'g'risida Elektron xabarnoma olish maqsadida SMS-xabarnoma quyidagilarga ulanadi:

- xalqaro to'lov tizimlari kartalariga – avtomatik ravishda;
- UzCard to'lov tizimi kartalariga – bankomatlarda;
- Humo to'lov tizimi kartalariga – Bank xizmatlari markazi / Bank servislari markazida.

3.10. Kartochka hisobvarag'i Mijoz tomonidan quyidagilar uchun ishlatalishi mumkin:

- qonun hujjatlariga muvofiq, Mijoz hisobvarag'iga bevosita Mijozning boshqa o'z hisobvaraqlaridan ham, boshqa jismoniy yoki yuridik shaxslarning hisobvaraqlaridan ham tushadigan pul mablag'larini o'tkazish;
- amaldagi qonun hujjatlari doirasida naqd pulsiz operasiyalarni o'tkazish;
- alohida tuziladigan shartnomalar shartlarida tegishli omonat turlari mavjud bo'lgan holatda muddatli va/yoki jamg'arma depozitlarni ochish maqsadida pul mablag'larini o'tkazish;
- muddatli va/yoki jamg'arma depozitning amal qilish muddati tugaganidan so'ng Kartochka hisobvarag'iga o'tkaziladigan pul mablag'larini hisobini yuritish;
- Mijoz pul mablag'larini milliy valyutada olish istagini bildirgan holatda, xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali tushgan pul mablag'larini olish;
- naqd pul mablag'larini to'lash va olish;
- amaldagi qonun hujjatlari doirasida Kartochka hisobvarag'i bilan boshqa operasiyalar / harakatlarni amalga oshirish.

3.11. Kartochka hisobvarag'idan naqd pulsiz mablag'lar o'tkazmasi bo'yicha operasiyalar va Bank tomonidan Mijoz nomidan hisob-kitob hujjatlari tuzilishi Bank tomonidan tasdiqlangan, Mijoz tomonidan imzolangan ariza asosida va Kartochka hisobvarag'iga biriktirilgan Bank kartasini taqdim qilish orqali amalga oshiriladi. Mijoz faqat mazkur Shartnoma bekor qilingan yoki Bank tomonidan Bank terminalidan foydalanilmagan holda bir marta ishlataladigan parolni yuborish orqali naqd pulsiz o'tkazmani amalga oshirish imkoniyati bo'lgan holatda Bank kartasini taqdim qilmasligi mumkin.

3.12. Bank kartasi Mijoz tomonidan quyidagi holatlarda qo'llanishi mumkin:

- Terminallar / Internet tarmog'i orqali CVV-koddan foydalanilgan holda Savdo-servis korxonasida tovarlar, ishlar va/yoki xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishda;
- bankomatlar yoki infokioskalar orqali to'lovni amalga oshirishda;
- bankomatlar yoki infokioskalar orqali Bank (yoki boshqa banklar) cassalarida naqd pul olishda;
- amaldagi qonun hujjatlari va mazkur Shartnoma doirasida boshqa harakatlarni amalga oshirishda.

3.13. Bank kartasi muddati ushbu Bank kartasining old tomonida qayd etiladi.

3.14. Qo'shimcha karta chiqarilishi va unga xizmat ko'rsatilishi yuzasidan, agar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, mazkur Shartnoma shartlari qo'llaniladi.

3.15. Bank axborot xavfsizligi va himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek xizmat ko'rsatish sifatini tegishli darajada saqlash maqsadlarida Mijoz qo'shimcha xabardor qilinmagan holda telefon orqali suhbatlar yozib olinishi mumkin.

3.16. Komprometasiya holatida Bank tegishli Bank kartasini blokirovka qilish huquqini o'zida goldiradi. Bank kartasini blokirovkadan chiqarish uning oldin blokirovka qilinishiga olib kelgan sabablar hal etilgan va bartaraf qilingan holatda amalga oshirilishi mumkin.

3.17. Bank kartasini blokirovka qilish Mijozning tashabbusiga binoan quyidagi usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin:

- bevosita Kontakt-markazga murojaat qilish;
- Bankka kelish;
- masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimlari orqali.

Bank kartasini blokirovkadan chiqarish uchun Mijoz masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish kanallari orqali yoki Kontakt-markazga qo'ng'iroq qilish va telefon so'zlashuvlari uchun Nazorat so'zini yoki Bankning rasmiy saytida e'lon qilingan Bank kartalari bo'yicha mahsulotlar pasportiga asosan Mijozni identifikasiyalash uchun kerakli boshqa ko'rsatkichlarni aytish orqali identifikasiyalashdan o'tkaziladi.

3.18. Bank kartasini blokirovka qilish tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq, shuningdek maxsus vakolatli organlar ko'rsatmalariga asosan amalga oshirilishi mumkin.

3.19. Bank kartasi quyidagi holatlarda Bank tomonidan olib qo'yilishi mumkin:

- Bank kartasidan tegishli vakolatga ega bo'limgan shaxs foydalanilgan holatda;
- agar Bank kartasi yo'qotilmagan bo'lsa, Bank kartasini qayta chiqarish;
- Kartochka hisobvarag'ini yopish.

3.20. Tashkilotdan tushadigan ish haqi Tranzit hisobvarag'iga tushgan paytdan e'tiboran 3 (uch) bank kuni mobaynida ish haqi loyihalari doirasida ochilgan Bank kartalari Kartochka hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Bunda, agar Tashkilot tomonidan quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, Mijozning hisobvarag'iga pul mablag'lari o'tkazilmaydi:

- Tranzit hisobvarag'iga pul mablag'lari tushgan paytdan e'tiboran navbatdagi bank kunidan kechikmay Tashkilot tomonidan Qaydnomada taqdim qilinmagan holatda;

- Qaydnoma Mijozning F.I.Sh. va uning Kartochka hisobvarag'i raqamining Bank avtomatlashtirilgan tizimida Mijozning haqiqiy F.I.Sh. va Kartochka hisobvarag'i raqamiga to'g'ri kelmagan holatda;

- Bank tomonidan belgilangan namuna bo'yicha Qaydnomada belgilangan namunalari qilinmagan holatda;

- Qaydnomadagi imzolar va muhrlarning Kartochkadagi Tashkilotning imzolar namunalari tegishli ma'lumotlariga to'g'ri kelmagan holatda;

- Tranzit hisobvarag'iga tushgan pul mablag'lari summalar va Qaydnomada belgilangan yakuniy summalar muvofiq bo'limgan holatda;

- Mijozning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar amal qilish muddati tugaganidan so'ng, shuningdek mazkur Shartnomaga shartlariga asosan Bank talabi bo'yicha hujjatlar taqdim qilinmagan holatda;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

Tashkilot uchun Tashkilot xodimlari Kartochka hisobvaraqlariga pul mablag'larini masofaviy o'tkazish imkoniyati bo'lgan holatda, u Bankka Qaydnomani taqdim qilish majburiyatidan ozod qilinadi.

Tashkilot tomonidan yuqorida qayd etilgan kamchiliklar ular to'g'risida xabardor qilingan paytdan e'tiboran 3 (uch) bank kuni mobaynida bartaraf qilinmagan holatda, Bank oldingi Tranzit hisobvarag'iga tushgan pul mablag'larini jo'natuvchi Tashkilot hisobvarag'iga qaytaradi.

3.21. Agar amaldagi Bank Tariflarida boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'iga foizlar hisoblab yozilmaydi.

IV. Taraflarning huquqlari va majburiyatlari

4.1.Bank quyidagilarga haqli:

4.1.1. zarur hollarda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, Mijoz tomonidan Kartochka hisobvarag'i bo'yicha o'tkazilayotgan operasiyalar qonuniyligini tekshirish va mazkur Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq kerakli tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilib olish;

4.1.2. quyidagi sharoitlarda Bank kartasini olib qo'yish:

- mazkur Shartnoma bekor qilingan holatda;
- Bank kartasidan tegishli vakolatga ega bo'limgan shaxs foydalangan holatda;
- agar Bank kartasi yo'qotilmagan bo'lsa, Bank kartasi qayta chiqarilgan holatda;

4.1.3. Bank Tariflarini o'zgartirish, bunda Bank Mijozni Bank Tariflariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risida Bankda, mijozlarga xizmat ko'rsatish joylarida, shuningdek Bankning rasmiy saytida tegishli axborotni joylashtirish orqali ular joriy qilingungacha 10 (o'n) bank kunidan oldin xabardor qiladi;

4.1.4. Mijozning roziligesiz Kartochka hisobvarag'idan va O'zbekiston Respublikasining boshqa banklarida ochilgan hisobvaraqlaridan quyidagi pul mablag'lari summalarini chegirib olish:

- Bank kartasi bo'yicha amalga oshirilgan, shu jumladan Mijoz tomonidan masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali elektron to'lovlar amalga oshirilganida tranzaksiyalar summasi;

- Bank Tariflariga muvofiq Bank komissiya haqi summasi;

- Kartochka hisobvarag'idagi faol pul mablag'lari qoldig'idan yuqori amalga oshirilgan tranzaksiyalar summasi;

- tegishli asos bo'lган holatda, Kartochka hisobvarag'iga yanglish o'tkazilgan pullar;

- Mijoz va Bank o'rtaсидаги boshqa amaldagi shartnoma munosabatlari natijasida yuzaga kelgan va ular yuzaga kelgan paytdan e'tiboran 5 (besh) bank kuni mobaynida so'ndirilmagan Mijozning har qanday qarzlarini so'ndirish uchun yetarli miqdordagi summalar.

4.1.5. O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan:

- Mijozdan uning tegishli ravishda tekshiruvini amalga oshirish uchun kerakli hujjatlar va ma'lumotlar, shu jumladan Mijoz tomonidan o'tkaziladigan operasiya bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etilishini talab qilish;

- Kartochka hisobvarag'ini ochishni va Bank kartasini chiqarishni yoki Mijozning Kartochka hisobvarag'i bo'yicha operasiyalar o'tkazishini rad qilish yoki Mijozni tegishli ravishda tekshirish imkoniyati bo'limgan holatda bir tomonlama tartibda Shartnomaning amal qilishini to'xtatish;

- Operasiyalar Mijozning KYC anketasida qayd etilgan ma'lumotlarga muvofiq bo'limgan holatda, xizmatlar ko'rsatilishini rad qilish va bir tomonlama tartibda mazkur Shartnomanini bekor qilish;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan holatlarda Kartochka hisobvarag'i bo'yicha operasiyalar o'tkazishini to'xtatib qo'yish va operasiyada ishlataladigan pul mablag'larini ishga solmay qo'yish;

- Mijoz operasiyalarini o'rganish maqsadida qo'shimcha axborotni talab qilib olish, operasiya summasiga limitlarni belgilash, operasiyalar o'tkazishini rad qilish yoxud Mijoz yoki uning operasiyasi sanksiyalar ro'yxatida bo'lgan va bunday xavf mavjud bo'lgan holatda bir tomonlama tartibda Shartnomaning amal qilishini to'xtatish;

- 4.1.6. Mijoz shaxsini tasdiqlovchi hujjatning amal qilish muddati tugagan holatda, shuningdek mazkur Shartnomada shartlariga asosan Bank talabi bo'yicha hujjatlar taqdim qilinmagan holatda, Mijozning arizasiga asosan pul mablag'lari o'tkazmasini va chegirib olinishini to'xtatib qo'yish;
- 4.1.7. qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda, ish beruvchi va xodim hisob-kitoblari doirasida olinadigan pul mablag'larini jo'natuvchi hisobvarag'iga qaytarish;
- 4.1.8. Mijozga Kartochka hisobvarag'i holati bo'yicha masofaviy xabardor qilish qo'shimcha xizmatlarini yoki belgilangan tartibda masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi xizmatlarini taqdim qilish;
- 4.1.9. 1-sonli Namuna bo'yicha Bank kartasini qayta chiqarish uchun arizani qabul qilishda Mijozdan Bank kartasi qaytarilishini talab qilish (karta yo'qotilganligi tufayli qayta chiqarish bundan mustasno);
- 4.1.10. Mijozdan mazkur Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni talab qilib olish;
- 4.1.11. masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimidan foydalanilgan holatda operasiyalarni amalga oshirish uchun limitlarni belgilash va ularga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritish;
- 4.1.12. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va mazkur Shartnomada belgilangan holatlarda Bank kartasini blokirovka qilish;
- 4.1.13. 1-sonli Namuna bo'yicha Bank kartasini yopish to'g'risida ariza Bank tomonidan olingan paytdan e'tiboran 180 (bir yuz sakson) kalendar kuni mobaynida talab qilib olinmagan Bank kartasini yo'q qilish. Bunday holatda Bank kartasini rasmiylashtirish va qayta rasmiylashtirish uchun komissiya haqi Mijozga qaytarilmaydi;
- 4.1.14. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va mazkur Shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish;
- 4.1.15. Operasiyalar Mijozning KYC anketasida qayd etilgan ma'lumotlarga muvofiq bo'limgan holatda, operasiyalarni to'xtatish, xizmatlar taqdim qilinishini va mazkur shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish;
- 4.1.16. Mijoz operasiyalarini o'rganish maqsadida qo'shimcha axborotni talab qilib olish, operasiya summasiga limitlarni belgilash, operasiyalar o'tkazishini rad qilish yoxud Mijoz yoki uning operasiyasi sanksiyalar ro'yxatida bo'lган yoki bunday xavf mavjud bo'lган holatda bir tomonlama tartibda Shartnomaning amal qilishini to'xtatish.

4.2.Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:

- 4.2.1. Kartochka hisobvarag'ini 1-sonli Namuna bo'yicha ariza berilgan sanadan e'tiboran 2 (ikki) bank kuni mobaynida va Bank kartasini 5 (besh) bank kunidan kechikmay berish;
- 4.2.2. Kartochka hisobvarag'iga pul mablag'larini, 3.18-banddan tashqari, navbatdagи ish kunidan kechikmay o'tkazish;
- 4.2.3. amaldagi qonun hujjatlari doirasida va mazkur Shartnomada shartlarida Mijozning topshirig'iga binoan hisob-kitoblarni o'tkazish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
- 4.2.4. Bank kartasi bo'yicha amalga oshirilgan va PIN-kod to'plami yoki bir marta ishlataladigan o'zgaruvchan kodlardan foydalanish yordamida tasdiqlangan barcha Tranzaksiyalar summasini Kartochka hisobvarag'idan chegirib olishni amalga oshirish (operasiyalar haqiqiyligini tasdiqlash shartlari masofaviy xizmatlardan foydalanib xizmatlar ko'rsatish alohida qoidalarida nazarda tutilgan).
- 4.2.5. Mijozning yozma shakldagi arizasiga yoki masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali so'rvnomaga asosan Kartochka hisobvarag'i bo'yicha ko'chirma berish, shuningdek Mijoz Kontakt-markazga murojaat qilganida, telefon so'zlashuvlari uchun to'g'ri Nazorat so'zi ma'lum qilingan holatda, Kartochka hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalarga doir axborot taqdim qilish;
- 4.2.6. Kartochka hisobvarag'i bo'yicha operasiyalar siriga rioya qilish va faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda uchinchi shaxslarga bank sirini o'z ichiga olgan ma'lumotlarni taqdim qilish;

4.2.7. Mijozning yozma shakldagi talabiga yoki Kontakt-markazga murojaat qilganida, telefon so'zlashuvlari uchun to'g'ri Nazorat so'zi ma'lum qilingan holatda, Bank kartasini blokirovka qilish;

4.2.8. Mijoz Bankka kelgan holatda Mijozning yozma shakldagi talabiga yoki masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali, shuningdek Mijoz Kontakt-markazga murojaat qilganida, telefon so'zlashuvlari uchun to'g'ri Nazorat so'zi ma'lum qilingan holatda, Bank kartasini blokirovkadan chiqarish;

4.2.9. Bankning axborot stendlarida, shuningdek rasmiy saytida Bank Tariflariga barcha o'zgartirishlar to'g'risida e'lонlar joylashtirish orqali Mijozni bunday o'zgartirishlar kuchga kiritilgungacha 10 (o'n) bank kunidan kechikmay xabardor qilish;

4.2.10. mazkur Shartnomaga bekor qilinganida Bank kartasini qabul qilish, Kartochka hisobvarag'ini yopish va Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari qoldig'ini Mijozning topshirig'iga binoan Mijoz tomonidan qayd etilgan talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga o'tkazish;

4.2.11. 1-sonli Namuna bo'yicha Mijozning yozma shakldagi arizasi asosida, Bank Tariflariga asosan komissiya haqi to'langanidan so'ng 3 (uch) bank kuni mobaynida buzilganligi / yo'qotilganligi tufayli yangi Bank kartasini qayta chiqarish;

4.2.12. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida va mazkur Shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

4.3.Mijoz quyidagilarga haqli:

4.3.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va mazkur Shartnomada doirasida belgilangan limit doirasida Kartochka hisobvarag'idagi o'z pul mablag'laridan erkin foydalanish;

4.3.2. amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda uchinchi shaxsga chiqarilgan bank kartasini olish, Kartochka hisobvarag'idagi va Bank kartasidagi pul mablag'laridan foydalanish hamda vakolatnomani rasmiylashtirish orqali karta bo'yicha ko'chirma olish huquqini berish.

Bunda, Mijoz Kartochka hisobvarag'i va Bank kartasidan foydalanish huquqlarining uchinchi shaxslarga berilishi bilan bog'liq ehtimoliy salbiy oqibatlar uchun javobgar bo'ladi;

4.3.3. Bankdan konsultasiyalar, shuningdek Mijozga tegishli Kartochka hisobvaraqlari bo'yicha xizmatlardan foydalanish bilan bog'liq axborot, shu jumladan Kartochka hisobvaraqlari bo'yicha ko'chirmalar va o'tkazilgan operasiyalar to'g'risida axborot olish;

4.3.4. Mijozning arizasi asosida Bank kartasidan foydalanishni rad qilish, so'ogra Kartochka hisobvarag'ini yopish, Kartochka hisobvarag'idan pul mablag'lari qoldig'ini Mijoz tomonidan qayd etilgan talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga o'tkazish;

4.3.5. Bankdan Shartnomaga bo'yicha majburiyatlar tegishlicha bajarilishini talab qilish;

4.3.6. Bank kartasi yordamida bankomatlar / kassalarda naqd pul mablag'larini olish, terminallar / infokioskalar / bankomatlar orqali tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun to'lovni amalga oshirish;

4.3.7. Bankda yozma shakldagi arizasiga asosan o'z Kartochka hisobvarag'idan ko'chirma olish yoki Kontakt-markazga murojaat qilganida, telefon so'zlashuvlari uchun to'g'ri Nazorat so'zi ma'lum qilingan holatda, Kartochka hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalarga doir axborot olish;

4.3.8. Bank ofislarida ham, Bankning rasmiy saytida ham Bank Tariflari, ularga o'zgartirishlar, shuningdek Bank kartasidan foydalanib yangi bank xizmatlari to'g'risida axborot olish;

4.3.9. Bank kartasini qayta chiqarish yoki Bank Tariflariga asosan uning qiymati to'langan holda qo'shimcha karta ochish;

4.3.10. o'z Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari noto'g'ri chegirib olinganligi to'g'risida o'z Kartochka hisobvarag'i holati to'g'risida axborot olingan kundan e'tiboran 2 (ikki) bank kuni mobaynida shikoyat arizasini berish. Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'lari Mijoz xabardor qilinmagan holda va Bank xatosi bo'yicha chegirib olinishi noto'g'ri chegirib olinish hisoblanadi, mazkur Shartnomaning 4.1.4-bandida qayd etilgan tranzaksiyalar bundan mustasno;

4.3.11. Bank kartasi yo'qotilgan yoki buzilgan holatda 1-sonli Namuna bo'yicha qayta chiqarish uchun ariza bilan Bankka murojaat qilish;

4.3.12. Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi yordamida Bankka yozma shaklda murojaat qilish yoki Kontakt-markazga qo'ng'iroq qilish orqali bank kartasini blokirovka qilish va/yoki blokirovkadan chiqarish. Agar bank kartasini blokirovka qilish vakolatli organlar talabi bo'yicha amalga oshirilgan va/yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda bank kartasini blokirovkadan chiqarish mumkin emas.

4.4. Mijoz quyidagi majburiyatlarni oladi:

4.4.1. Bank kartasi olinganida:

- shaxsini tasdiqlovchi asl hujjatni Bank ofisida yoki kurerlik xizmati orqali taqdim qilish;
- kartomat orqali Bank mobil ilovasida ishlatiladigan QR-kodni taqdim qilish;
- terminal, bankomat yoki Bank mobil ilovasi orqali mustaqil ravishda PIN-kodni belgilash;

4.4.2. Bank kartasidan, tasdiqlangan PIN-kod to'plamidan foydalanib yoki bir marta ishlatiladigan kodlardan foydalanib amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo'yicha hisob-kitob qilish (operasiyalar haqiqiyligini tasdiqlash shartlari Bank to'lov tizimlari va chet to'lov tashkilotlari to'lov tizimlaridan foydalanib masofaviy bank xizmatlarini amalga oshirish alohida qoidalarida nazarda tutilgan);

4.4.3. Bank talabi bo'yicha Mijozning tegishli ravishda tekshiruvini amalga oshirish uchun kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni, shu jumladan Bank tomonidan belgilangan muddatlarda o'tkaziladigan operasiya bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim qilish;

4.4.4. Bank Tariflariga muvofiq Bank komissiya haqini o'z vaqtida to'lash;

4.4.5. Bank kartasining tegishlicha saqlanishini ta'minlash va Bank kartasining PIN-kodini, bir marta ishlatiladigan SMS parollarni uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik va kartomatda karta olish uchun mobil ilovada uchinchi shaxslarning QR-koddan foydalanishini cheklash, shuningdek telefon so'zlashuvlari va To'lov tizimlari kirish uchun Nazorat so'zlarini oshkor qilmaslik;

4.4.6. pasport va boshqa ma'lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, turar joy manzili, aloqa bog'lash uchun telefon raqamlari va h.k.) o'zgargan holatda, ushbu o'zgarishlar to'g'risida Bankni o'zgarishlar yuz bergan paytdan e'tiboran 10 (o'n) bank kuni mobaynida tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilgan holda yozma shaklda xabardor qilish;

4.4.7. Bank kartasi yo'qotilgan / o'g'irlangan holatda, darhol Bank kartasini masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali blokirovka qilish yoki telefon so'zlashuvlari uchun to'g'ri Nazorat so'zi ma'lum qilingan holatda Kontakt-markazga murojaat qilish yoki Bankni bu haqda yozma shaklda xabardor qilish;

4.4.8. Bank kartasi yo'qotilganligi / buzilganligi tufayli qayta chiqarilganida Bank Tariflariga muvofiq Bankka komissiya haqini to'lash;

4.4.9. Bank kartasidan faqat faol qoldiq doirasida yoki Kartochka hisobvarag'ida belgilangan limit doirasida foydalanish va uning bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik. Kartochka hisobvarag'ida salbiy qoldiq yuzaga kelgan holatda, butun qarzdorlik summasini ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan paytdan e'tiboran 10 (o'n) kalender kuniidan kechikmay so'ndirish, alohida shartnomaga bilan tartibga solinadigan Bank tomonidan overdraft xizmatlari taqdim qilinadigan holatlar bundan mustasno;

4.4.10. Kartochka hisobvarag'i bo'yicha operasiyalarni amalga oshirishda o'z Kartochka hisobvarag'ida operasiyalarni amalga oshirish va Bank tomonidan xizmatlar to'lovini undirish uchun yetarli hajmda pul mablag'lari bo'lishini ta'minlash;

4.4.11. Kartochka hisobvarag'i bo'yicha tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq operasiyalarni amalga oshirmslik;

4.4.12. o'z Kartochka hisobvarag'iga begona pul mablag'lari tushumi to'g'risida Bankka o'z Kartochka hisobvarag'i holati to'g'risida axborot olingan kundan e'tiboran 2 (ikki) ish kuni mobaynida ma'lum qilish va Bankka Kartochka hisobvarag'iga yanglish o'tkazilgan pul mablag'larini o'z Kartochka hisobvarag'i holati to'g'risida axborot olingan paytdan e'tiboran 3 (uch) bank kuni mobaynida qaytarish;

- 4.4.13. o'z Kartochka hisobvarag'idan noto'g'ri chegirib olinganligi to'g'risida Bankka Kartochka hisobvarag'iga noto'g'ri chegirib olingan pul mablag'larini qaytarish uchun o'z Kartochka hisobvarag'i holati to'g'risida axborot olingan kundan e'tiboran 2 (ikki) ish kuni mobaynida ma'lum qilish;
- 4.4.14. taqdim qilingan axborot va hujjatlarning to'g'riliqi uchun to'liq javobgar bo'lism;
- 4.4.15. Bank talabi bo'yicha 3 (uch) bank kuni mobaynida mazkur Shartnomada nazarda tutilgan xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim qilish;
- 4.4.16. Bank va chet to'lov tashkilotlari to'lov tizimlarining Internet tarmog'ida o'z rasmiy sahifalarida ulanish, kirish va xizmat ko'rsatish bo'yicha shartlari bilan mustaqil ravishda tanishib chiqish;
- 4.4.17. o'z shaxsiy ma'lumotlari komprometasiya bo'lgan yoki komprometasiyaga shubha qilingan holatda darhol Bankni xabardor qilish, umumi foydalanish telekommunikasiya tarmog'i orqali, shu jumladan Internet orqali uzatilgan ma'lumotlar komprometasiya bo'lish ehtimoli bilan bog'liq xavflarni o'ziga qabul qilish;
- 4.4.18. 1-sonli Ilovaga asosan to'lov tizimi operatorlari va bank tomonidan belgilangan bank kartasini saqlash va undan foydalanish shartlariga rioya qilish.

V. Bank xizmatlari uchun komissiya haqi

- 5.1. Mazkur Shartnomaga muvofiq taqdim qilinadigan xizmatlar qiymati Bankning amaldagi Tariflarida belgilanadi.
- 5.2. Bank xizmatlari uchun haq Mijozning Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'laridan alohida operasiyalar o'tkazilishiga qarab, Bank tomonidan kerakli summa akseptsiz tartibda chegirib qolinishi orqali olinadi. Mijoz operasiyalar amalga oshirilishi bo'yicha Bank xizmatlari uchun naqd pul shaklida ham, naqd pulsiz shaklida ham Bankda boshqa hisobvaraqlardagi pul mablag'lari hisobidan to'lashi mumkin.
- 5.3. Bank bir tomonlama tartibda Bank Tariflariga o'zgartirishlar kiritishga haqli. Bank Tariflariga o'zgartirishlar kiritilganligi to'g'risida Bank ushbu o'zgartirishlar joriy qilingungacha 10 (o'n) bank kunidan oldin Mijozni Bankda mijozlarga xizmat ko'rsatish joylarida, shuningdek Bank rasmiy korporativ saytida tegishli axborotni joylashtirish orqali xabardor qiladi. Bank Tariflariga komissiya haqi miqdorini kamaytirish (Mijoz uchun qulay sharoitlar yaratish) tomonga o'zgartirishlar kiritilgan holatda, Bank ushbu o'zgartirishlarni Bank Tariflariga o'zgartirishlar kuchga kiritilgan kundan keyingi kundan kechikmay bir tomonlama tartibda joriy qilishga haqli.

VI. Taraflar javobgarligi

6.1. Mijoz quyidagilar uchun javobgar bo'ladi:

- 6.1.1. Kartochka hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilayotgan operasiyalarning qonuniyligi va Bankka taqdim qilinadigan axborot va hujjatlarning to'g'riliqi;
- 6.1.2. Bankka Mijozning noqonuniy harakatlari tufayli yetkazilgan / yuzaga kelgan zararlar o'rni to'ldirilishi, shu jumladan Kartochka hisobvarag'iga yanglish o'tkazilgan pullarning Bankka qaytarilmaganligi;
- 6.1.3. Bank tomonidan Mijozning yozma shakldagi arizasi, masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali bank kartasini blokirovka qilish uchun so'rovnomasini olingungacha yoki Bank kartasi yo'qotilganligi / o'g'irlanganligi yoki o'z Kartochka hisobvarag'i bo'yicha shubhalni faollik to'g'risida Kontakt-markazga murojaatigacha har qanday Tranzaksiyalar amalga oshirilganligi;
- 6.1.4. mazkur Shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini va boshqa shartlar buzilganligi;
- 6.1.5. Bank va chet to'lov tashkilotlarining to'lov vositalaridan foydalanish amalga oshirilgan barcha operasiyalar uchun javobgar bo'ladi.
- 6.1.6. Mijoz Kartochka hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilayotgan operasiyalarning qonuniyligi va Bankka taqdim qilinadigan axborot va hujjatlarning to'g'riliqi uchun javobgar bo'ladi hamda noqonuniy harakatlari tufayli Bankka yetkazilgan zararlar o'mmini to'ldirishi shart.

6.2. Bank quyidagilar uchun javobgar bo'ladi:

- 6.2.1. Mijozning Kartochka hisobvarag'idan noto'g'ri chegirib olinishi, noto'g'ri chegirib olingan summa (haqiqiy zarar) miqdorida;
- 6.2.2. Kartochka hisobvarag'ini o'z vaqtida ochmaganlik, shuningdek Bank kartasini o'z vaqtida chiqarmaganlik, ular bo'lman holatlar bundan mustasno;
- 6.2.3. bank sirining noqonuniy oshkor qilinishi.

6.3. Bank quyidagi holatlarda javobgarlikdan ozod qilinadi:

- 6.3.1. Prosessing markazlari ishidagi texnik to'xtalishlar yoki Prosessing markazlari faoliyati bilan bog'liq boshqa vaziyatlar sababli Mijozning Online-hisobvarag'ida pul mablag'larining o'z vaqtida aks ettirilmaganligi yoki ulardan vaqtincha foydalanish imkoniyati yo'qligi;
- 6.3.2. uchinchi tarafning Bank kartasiga xizmat ko'rsatishni rad qilishi;
- 6.3.3. Bank kartasi bo'yicha xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifati;
- 6.3.4. «UZSARD», «HUMO», «MASTERCARD», «UNIONPAY INTERNATIONAL», «VISA» to'lov tizimlari boshqa bank ishtirokchilarining harakatlari / harakatsizligi natijasida Mijozga «UZSARD», «HUMO», «MASTERCARD», «UNIONPAY INTERNATIONAL», «VISA» to'lov tizimlari boshqa bank ishtirokchilari xizmat ko'rsatish tarmoqlarida Bank kartasi bilan operasiyalarni amalga oshirishda ma'naviy va/yoki moddiy zarar yetkazilganligi;
- 6.3.5. xizmatlar turlari, ehtimoliy operasiyalar ro'yxati, Bank kartalariga xizmat ko'rsatish muddatlari va texnologik shartlari vaqtincha qisqarishi / yomonlashishi / o'zgarishi, agar bu Bank, «UZSARD», «HUMO», «MASTERCARD», «UNIONPAY INTERNATIONAL», «VISA» to'lov tizimlari boshqa bank ishtirokchilari uskunalari va naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimi versiyalari o'zgarishi tufayli yuzaga kelgan bo'lsa;
- 6.3.6. uchinchi taraf tomonidan belgilangan, Mijoz manfaatlariga ta'sir etishi mumkin bo'lgan Bank kartasi bilan operasiyalar bo'yicha limitlar, cheklovlari va qo'shimcha haqlar;
- 6.3.7. yo'qotilgan / o'g'irlangan Bank kartasini blokirovka qilish to'g'risida Bankni o'z vaqtida yozma shaklda xabardor qilmaslik oqibatlari, shu jumladan Mijozdan Bank kartasi yo'qotilganligi va/yoki o'g'irlanganligi to'g'risida yozma shaklda xabar olingan paytgacha yoki Mijoz Kontakt-markazga murojaat qilganidan so'ng Bank kartasi blokirovka qilingan paytgacha uchinchi shaxslar tomonidan Bank kartasi bo'yicha amalga oshirilgan tranzaksiyalar uchun;
- 6.3.8. Mijoz tomonidan Bank kartasining PIN-kodi va/yoki CVV-kodi, SMS parollar, telefon so'zlashuvlari uchun Nazorat so'zi va To'lov tizimlariga kirish paroli (parollari) uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi natijasida uchinchi shaxslar tomonidan Bank kartasi bo'yicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalar uchun;
- 6.3.9. PIN-kodning ketma-ket uch marta noto'g'ri terilganligi oqibatida Bank kartasi blokirovka qilinishi;
- 6.3.10. O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan operasiyalarning to'xtatib qo'yilishi va operasiyalarda ishlatiladigan mablag'larning ishga solmay qo'yilishi yoki Mijoz tomonidan moliyaviy sanksiyalar taqiqlovlarg'a rivoja qilinmaganligi natijasida operasiyalarning to'xtatib qo'yilishi va operasiyalarda ishlatiladigan mablag'larning ishga solmay qo'yilishi;
- 6.3.11. Bank operasiyalarini amalga oshirish va Mijozni tegishlicha tekshirish uchun Bank tomonidan talab qilinadigan hujjatlar va ma'lumotlarning Mijoz tomonidan taqdim qilinmaganligi yoki o'z vaqtida taqdim qilinmaganligi yoxud taqdim qilingan hujjatlarda yo'l qo'yilgan noaniqlik va xatolar uchun;
- 6.3.12. Bankka bog'liq bo'lman sabablar tufayli va fors-major vaziyatlar yuzaga kelgan holatda Bank tomonidan o'z majburiyatlarini bajarish imkoniyati yo'qligi;
- 6.3.13. tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda Kartochka hisobvarag'ini ochish va

Bank kartasini chiqarish, shuningdek Bank hisobvarag'i bo'yicha operasiyalarni amalga oshirish rad qilinishi;

6.3.14. Mijozning chet to'lov tashkilotlari vositalaridan foydalanishda noo'rin yoki noto'g'ri harakatlari;

6.3.15. Reestr / Qaydnomadagi qog'oz tashuvchi vositadagi ma'lumotlarning Bank avtomatlashtirilgan tizimidagi ma'lumotlarga muvofiq emasligi, agar Bank avtomatlashtirilgan tizimidagi ma'lumotlar Mijoz pasporti va boshqa ma'lumotlari bilan bir xil bo'lmasa;

6.3.16. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Tashkilotning Tranzit hisobvarag'i bo'yicha operasiyalar o'tkazilishini to'xtatib qo'yish;

6.3.17. Tashkilot va Xodim (shu jumladan, mehnat munosabatlarini to'xtatgan xodim) o'rtasida yuzaga kelgan nizolar va kelishmovchiliklar bo'yicha javobgar bo'lmaydi.

6.4. Mijoz Kartochka hisobvarag'i bo'yicha amalga oshirilayotgan operasiyalarning qonuniyligi va Bankka taqdim qilinadigan axborot va hujjatlarning to'g'riliqi uchun javobgar bo'ladi hamda noqonuniy harakatlar tufayli Bankka yetkazilgan zararlar o'mini to'ldirishi shart.

6.5. Bank Mijozning noqonuniy harakatlari uchun javobgar bo'lmaydi.

6.6. Mijoz va uchinchi shaxslar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha o'zaro e'tirozlar Bank ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

6.7. Taraflar mazkur Shartnomada nazarda tutilgan huquqlar va majburiyatlardan tashqari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladilar.

6.8. Taraflar majburiyatlar bajarilmaganligi fors-major vaziyatlari oqibatida yuz bergen holatda, bunday majburiyatlar bajarilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydilar.

VII. Shartnomaning amal qilish muddati. Shartnomaning amal qilishini to'xtatish tirtibi

7.1. Mazkur Shartnomaga Mijoz mazkur Shartnomaning 2.2-bandiga muvofiq Ofertaga qo'shilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va nomuayyan muddatga tuzilgan hisoblanadi.

7.2. Mazkur Shartnomaga Mijozning arizasiga binoan istalgan vaqtida Mijozga ko'rsatilgan bank xizmatlari bilan bog'liq barcha to'lovlar amalga oshirilganidan so'ng, shuningdek Bank tomonidan bank kartasi bo'yicha barcha tranzaksiyalar olinganidan so'ng bekor qilinishi mumkin.

7.3. Mazkur Shartnomaga tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quroli tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga asosan Bank tomonidan bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin.

7.4. Bank talabiga ko'ra, Mazkur Shartnomaga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

7.5. Shartnomaning bekor qilinishi Kartochka hisobvarag'ini yopish uchun asos hisoblanadi.

VIII. Korrupsiyaga qarshi shartlar

8.1 Taraflar, ularning affillangan shaxslari, xodimlar yoki vositachilar mazkur Shartnomaga bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda:

- biron-bir noqonuniy ustunlikka yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish va/yoki foyda olish uchun har qanday shaxslarga ushbu shaxslarning harakatlariga yoki qarorlariga ta'sir etish maqsadida hech qanday pul mablag'lari yoki qimmatbaho boyliklarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar va to'lovga ruxsat bermaydilar;

- qonun hujjatlarida pora berish / olish, tijorat maqsadlarida pul berib o'z tomoniga og'dirib olish sifatida tasniflanadigan, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qo'llaniladigan qonun hujjatlari va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar.

8.2 Mazkur Shartnomaga Taraflaridan har biri biron-bir tarzda boshqa Tarafni (Bank xodimlarini), shu jumladan pul summalarini, sovg'alarni berish, ular nomiga bepul ishlar (xizmatlar) bajarish hamda Bank xodimini muayyan qaramlikka olib keladigan va ushbu Bank xodimi tomonidan

rag'batlantiruvchi Taraf foydasiga biron-bir harakatlar bajarilishini ta'minlashga qaratilgan boshqa usullar orqali rag'batlantirishni rad qiladilar.

- 8.3 Tarafda korrupsiya yoki firibgarlik holatlari yuz bergenligi yoki yuz berishi mumkinligiga shubhalar paydo bo'lgan holatda, tegishli Taraf bu haqda boshqa Tarafni yozma shaklda xabardor qilish majburiyatini oladi.
- 8.4 Xabardor qilingan Taraf mazkur Sharhnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarilishini korrupsiya faoliyatini amalga oshirish fakti tasdiqlangungacha to'xtatib qo'yishga haqli.
- 8.5 Taraflar pora berish / olish yoki pora berish / olish to'g'risida shak-shubhasiz yolg'on ma'lumotlar berilishi natijasida yetkazilgan zarar o'rnini to'ldirish majburiyatini oladilar.
- 8.6 Tegishli Taraf Bankni manfaatlar to'qnashuvi oldini olish maqsadida Bank bilan aloqadorligi va affillanganligi to'g'risida xabardor qilish majburiyatini oladi.

IX. Boshqa shartlar

9.1 Bank mazkur Oferta va Bank Tariflari yangi tahririni o'z saytida joylashtirish orqali mazkur Oferta shartlariga bir tomonlama tartibda o'zgartirishlar kiritishga haqli. Kiritilgan o'zgartirishlar Bank korporativ veb-saytida joylashtirilgan paytdan e'tiboran Bank va Mijoz uchun majburiy bo'ladi.

9.2 Mazkur Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni bajarish maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 02 iyuldagagi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zRQ-547-sonli Qonuni qoidalariga muvofiq, Mijoz Bankka Mijozning shaxsiy ma'lumotlariga tegishli har qanday axborotni saqlash va ishslash, shu jumladan avtomatlashtirilgan tartibda saqlash va ishslash, shu jumladan Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini to'plash, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, foydalanish, taqdim qilish, tarqatish, uzatish, egasiz qilish va yo'q qilish huquqini beradi, shuningdek mazkur Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida Shaxsiy ma'lumotlar uchinchi shaxslarga berilishiga o'z roziligini bildiradi.

9.3 Mazkur Sharhnomasi shartlari va shartlar bajarilishi bo'yicha kelishmovchiliklar paydo bo'lgan holatda, nizo Taraflarning o'zaro kelishuvi bo'yicha hal qilinadi. Taraflar kelishuvga erishmagan nizolar va kelishmovchiliklar Bank yoki uning filiali joylashgan manzil bo'yicha vakolatli sudda hal qilinadi.

9.4 Bank quyidagi holatlarda Mijozga xabarnoma yuborishi mumkin:

- agar Bank tomonidan Mijozning bank kartalari bo'yicha operasiyalar to'xtatib qo'yilishi amalga oshirilsa (PIN-kod noto'g'ri terilishi natijasida karta blokirovka qilingan holatlar bundan mustasno), Bank operasiya to'xtatib qo'yilgan kundan keyingi ish kunidan kechikmay Mijozga uning hisobvaraqlari bo'yicha operasiyalar to'xtatib qo'yilishi sababi to'g'risida xabarnoma yuboradi;

9.4.1 Xabarnoma Mijozga SMS / telefon qo'ng'iroq'i yoxud pochta yoki elektron aloqa orqali yoxud boshqa kommunikasiya kanallari orqali taqdim qilinadi. Xabarnoma yuborish usuli Bank tomonidan mustaqil ravishda tanlanadi.

“Tenge Bank” ATBda jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingan milliy va xorijiy valyutadagi bank kartalariga xizmat ko’rsatish to’g’risida Ommaviy shartnoma-Ofertaga 1-sonli Ilova

BANK KARTALARINI SAQLASH VA ULARDAN FOYDALANISH SHARTLARI

Karta PIN-kodini belgilash / qayta belgilash va saqlash

PIN-kod maksimal – 4 ta raqam uzunligiga ega bo’lishi mumkin.

Kartani shaxsan qo’lingizga olgandan so’ng, unda maxfiy ravishda o’z PIN-kodini belgilang, bunda quyidagi qoidalarga rioya qiling:

- PIN-kodini belgilashda takrorlanadigan raqamlardan, muhim sanalar va o’z haqingizda ko’pchilikka ma’lum ma’lumotlardan (masalan: tug’ilgan sana, avtomashina, telefon raqamlari va h.k.) foydalanish kerak emas;
- o’z PIN-kodingizni yozib qo’ymang, balki uni xotirada saqlab qoling;
- o’z Kartangiz PIN-kodini boshqa shaxslarga ma’lum qilmang. O’z Kartangiz PIN-kodini oshkor qilishni hech kim, shu jumladan Bank va Savdo (xizmat) korxonasi xodimlari talab qilishga haqli emas. O’z Kartangiz PIN-kodi boshqa shaxslarga ma’lum bo’lgan holatda, o’z Kartangiz bo’yicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalar uchun barcha javobgarlik Sizga yuklatiladi, chunki Siz uchun Karta chiqargan Bank bilan shartnomaga asosan faqat Siz Kartaning qonuniy egasi hisoblanasiz;
- agar Siz o’z Kartangiz PIN-kodi Siz istagandan boshqa ekanligini, boshqa shaxslarga oshkor qilinganligini aniqlasangiz, PIN-kodni maxfiy ravishda o’zgartirish kerak;
- PIN-kodni o’zgartirishda dastlab amaldagi Kartangiz PIN-kodini kiritish, so’ngra esa uni yangi PIN-kodga qayta o’rnatish kerak, bunda POS-terminal yoki o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish / masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish tizimi terminalidan foydalanish kerak (unda bunday imkoniyat mavjud bo’lgan holatda);
- doimiy ravishda, eng kamida oyiga bir marta PIN-kodni o’zgartirib turing. Agar Sizning Kartangizga ish haqi o’tkazilsa, oldindan, Kartangiz hisobvarag’iga navbatdagi ish haqi o’tkazilgungacha 1-2 kun oldin Kartangiz PIN-kodini o’zgartiring. Bunday holatda, Karta hisobvarag’iga o’tkazilgan mablag’lar xavfsizligi Karta yo’qotilgan holatda ham yuqori bo’ladi;
□ Shuni unutmang, PIN-kodning uch marta ketma-ket noto’g’ri terilishi Kartani blokirovka qiladi. Shu tufayli PIN-kodni terish vaqtida klaviaturaning tegishli tugmasi har bir bosilganida terminal displayida yoki POS-terminal yoxud o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish Terminali ekranida uslubiy “yulduzcha” aks ettirilishini diqqat bilan kuzating. Bu POS-terminal yoxud o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish Terminali klaviaturasida PIN-kodning barcha terilgan raqamlari qurilma tomonidan ishslash uchun qabul qilinganligini anglatadi. Aks holda, Siz tomonidan klaviaturaning tegishli tugmasi yetarlicha bosilmaganligi tufayli yoki tugma nosozligi tufayli Siz noto’g’ri PIN-kodni terishingiz va Kartani blokirovka qilib qo’yishingiz mumkin;
- agar Siz PIN-kodni ikki marta noto’g’ri terib, uchinchi marta esa to’g’ri tersangiz, PIN-kodni kiritish urinishlari yana uch martagacha tiklanadi;
- Kartani faqat Bank Kontakt-markaziga murojaat qilish orqali blokirovkadan chiqarish yoki masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish tizimi orqali blokirovkadan chiqarish mumkin. Bunda, PIN-kodning uch marta ketma-ket noto’g’ri terilishi tufayli Karta blokirovka qilingan holatda, Bank Kontakt-markaziga qo’ng’iroq qilish orqali operatorga shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma’lumotlari va Kod so’zini ma’lum qilgan holda Kartani blokirovkadan chiqarish mumkin.

Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi orqali Kartani blokirovkadan chiqarish uchun Bank mobil ilovasidan foydalanish va tegishli bo'limga kirish kerak;

– Kartani blokirovkadan chiqarish tartib-taomilini bajarish davomida Siz shaxsan va maxfiy ravishda Kartangiz yangi PIN-kodini kiritishingiz kerak.

Kartani saqlash va boshqa shaxslarga berish

Karta naqd pulsiz hisob-kitoblar vositasi hisoblanadi, o'z mablag'laringiz tegishlicha saqlanishini va ulardan foydalanish xavfsizligini oshiradi, Siz tomondan tovarlar va xizmatlar xarid qilishda qo'shimcha qulayliklar yaratadi. Biroq, Siz tomondan muayyan xavfsizlik choralariga rioya qilmaslik Karta afzalliklarini kamaytiradi.

Shu tufayli Siz har doim quyidagi qoidalarni yodda tutishingiz va bajarishingiz kerak:

1. Kartani hamyon va naqd pullar bilan birga, shuningdek kiyimning Karta tasodifan shikastlanish ehtimoli yuqori bo'lgan joylarida (masalan, shimming orqa cho'ntagida, kalitlar va boshqa narsalar bilan birga) saqlamang.

2. Kartani hatto qisqa vaqtga ham begona shaxslarga bermang, ayniqsa, shundan so'ng ular tomonidan Karta bilan amalga oshiriladigan harakatlarni nazorat qilish imkoniga ega bo'lmasangiz. Vaqt-vaqt bilan Karta o'z joyida ekanligini tekshirib turing.

3. o'z Kartangiz raqamini, shuningdek Karta chiqarilgan bank ta'sis kodini yozib oling va saqlab qo'ying, ular Kartaning old tomonida aks ettirilgan.

4. Agar Siz o'z Kartangizdan foydalanishni boshqa shaxsga ishonib topshirishga qaror qilgan bo'lsangiz, buni tegishli ravishda rasmiylashtirish va ishonchli vakil mazkur Shartlar tavsiyalari bilan tanishib chiqqanligi va o'zlashtirib olganligiga hamda ularni so'zsiz bajarishga tayyorligiga ishonch hosil qilish kerak.

5. Har doim Savdo (xizmatlar) korxonasi xodimlari va Bank xodimlari tomonidan o'z Kartangiz bilan harakatlarni vizual nazorat qilishga intiling va hech qachon Kartani Bankomatda / o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish terminalida yoki savdo terminalida qoldirib ketmang.

6. Karta chipiga turli nurlar, namlik tushishi, agressiv kimyoviy moddalar ta'siridan saqlaning, Kartadan belgilangan vazifasidan tashqari maqsadlarda foydalanmang – bu uning buzilishiga olib keladi.

Karta yo'qotilgan / buzilgan va oldin yo'qotilgan Karta topilgan holatdagi harakatlar

Agar Siz yoki Sizning ishonchli shaxsingiz tomonidan Karta yo'qotilgan bo'lsa, Siz darhol bu haqda Universal shartnomaga asosan Bankka ma'lum qilishingiz kerak.

Yodingizda tuting, agar Sizning yo'qotilgan Kartangiz bo'yicha Tranzaksiyalar bajarilgan bo'lsa, ushbu Tranzaksiyalar summasi Bank tomonidan Sizga qaytarilmaydi. Shu tufayli Kartadan mablag'lar yo'qotilishi xavflarini kamaytirish maqsadida o'z PIN-kodingizni begona shaxslarga ma'lum qilmang.

Agar Siz oldin Bankka yo'qotilganligi va blokirovka qilish to'g'risida ariza bergen yo'qotilgan Kartangizni topib olsangiz, hech bir holatda ushbu Kartadan naqd pulsiz to'lov vositasi sifatida foydalanishga urinmang – Sizning Kartangiz hozirda blokirovka qilingan va Bankomat / o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish Terminali tomonidan ushlab qolinishi mumkin.

Birinchi navbatda, Siz Bank Kontakt-markaziga qo'ng'iroq qilishingiz va Siz tomondan oldin yo'qotilgan, hozirda blokirovka qilingan Karta topilganligi to'g'risida ma'lum qilishingiz kerak. Shundan so'ng Bank xodimlari Sizga kelgusi ko'rsatmalarni ma'lum qiladi.

Topilgan Karta terminal / Bankomat / o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish Terminalida foydalanishga urinishda blokirovka qilingan holatda, Siz uni blokirovkadan chiqarish uchun Bank Kontakt-markaziga murojaat qilishingiz kerak. Kartani blokirovkadan chiqarish uchun Bank xodimini chaqirish talab qilingan holatda, yoningizda shaxsni tasdiqlovchi hujjat, shuningdek Kartadan foydalanish uchun tegishli ravishda rasmiylashtirilgan vakolatnama bo'lishi kerak (agar Siz ishonchli shaxs bo'lsangiz).

Yodingizda tuting, Bank Sizga quyidagi holatlarda o'z Kartangiz bo'yicha amalga oshirilgan Tranzaksiyalar bo'yicha mablag'lar o'rmini to'ldirmaydi:

– Tranzaksiya Karta blokirovka qilingan paytgacha amalga oshirilgan;

– Tranzaksiya Prosessing markaziga tushmagan.

Kartadan foydalanish vaqtida yuz bergan uzilishlar yoki shtatdan tashqari vaziyatdagi harakatlar

Siz har doim shuni yodda tutishingiz kerakki, Karta va undan foydalilaniladigan infratuzilma uskunasi garchi yuqori texnologik zamonaviy dasturiy-texnik qurilmalar hisoblansa ham turli xususiyatli ishdagi to'xtalishlarga uchrashi mumkin. Quyida Kartadan foydalanishda eng keng tarqalgan ishdagi to'xtalishlar va shtatdan tashqari vaziyatlar ro'yxati keltirilgan:

1. Bankomatda Kartadan mablag'lar chegirib olingen, biroq naqd pul berilishi amalga oshirilmagan.

Bunday holatda, Siz Bankomat tomonidan Operasiya cheki berilishini kutib turishingiz kerak. Shundan so'ng shu Bankomatning o'zida naqd pul berilishi amalga oshirilmagan Karta bo'yicha Operasiyalar tarixini bosmadan chiqaring. So'ngra ushbu Bankomatga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasiga murojaat qiling (aloqa bog'lash uchun telefon raqamlari Bankomat chekida qayd etilgan bo'lisi kerak), Bankomatda o'z Kartangizdan mablag'lar chegirib olinganligi, biroq naqd pul berilmaganligi fakti bo'yicha belgilangan namunada ariza bering va Operasiya chekini yoki chek nusxasini ilova qiling. Yoningizda Karta, shaxsni tasdiqlovchi hujjat, Kartadan foydalanish uchun (agar Siz ishonchli vakil / Mijoz vakili bo'lsangiz) notarial tasdiqlangan vakolatnama bo'lisi kerak. Bankomatdagagi vaziyat dastlabki tekshiruvdan so'ng Sizga Karta chiqargan bank muassasasiga qo'shimcha ravishda murojaat qilishingizga to'g'ri kelishi mumkin.

2. Bankomatda Kartadan mablag'lar chegirib olinmagan, biroq naqd pul berilishi amalga oshirilgan.

Bunday holatda, Siz Bankomat tomonidan Operasiya cheki berilishini kutib turishingiz kerak. Shundan so'ng shu Bankomatning o'zida mablag'lar chegirib olinmagan, biroq naqd pul berilishi amalga oshirilgan Karta bo'yicha Operasiyalar tarixini bosmadan chiqaring. So'ngra ushbu Bankomatga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasiga murojaat qiling (aloqa bog'lash uchun telefon raqamlari Bankomat chekida qayd etilgan bo'lisi kerak) va Bankomatda o'z Kartangizdan mablag'lar chegirib olinmaganligi, biroq naqd pul berilganligi fakti bo'yicha belgilangan namunada ariza bering, Operasiya chekini yoki chek nusxasini ilova qiling hamda Bankomatda olingen naqd pul summasini bank kirim kassasiga to'lang. Yoningizda Karta, shaxsni tasdiqlovchi hujjat, Kartadan foydalanish uchun (agar Siz ishonchli shaxs / Mijoz vakili bo'lsangiz) tegishli ravishda rasmiylashtirilgan vakolatnama bo'lisi kerak.

Yuqorida qayd etilgan va boshqa ishdagi to'xtalishlardan saqlanish maqsadida Siz quydagilarni nazorat qilishingiz kerak:

□□Savdo (xizmat) korxonasi xodimi Sizning Kartangiz bilan Operasiyani amalga oshirishdan oldin savdo terminali ishga yaroqliligiga, chek qog'ozi bilan ta'minlanganligi va bosmadan chiqarishga tayyorligiga (agar terminal to'liq funksional bo'lsa) va unga muqobil ta'minot qismlari – batareykalar / akkumulyatorlar o'rnatilganligiga (agar terminal ko'chma bo'lsa) ishonch hosil qilgan.

– Savdo (xizmat) korxonasi xodimi terminalda Sizning Kartangiz bilan Operasiyani amalga oshirish paytida, Tranzaksiya va operasiya chekini bosmadan chiqarish tugagungacha Sizning Kartangizni terminal kartrideridan chiqarmagan va terminalni elektr tarmog'idan uzib qo'yagan (agar terminal to'liq funksional bo'lsa) va terminaldan muqobil ta'minot qismlarini olib qo'yagan (agar terminal ko'chma bo'lsa).

– terminal tomonidan Operasiya chekini bosmadan chiqarish paytida Savdo (xizmat) korxonasi xodimi terminal klaviaturasining tegishli tugmasini bosish orqali qog'oz o'tkazilishini amalga oshirmagan va bosmadan chiqarilayotgan Operasiya chekining qo'lida majburan tortib olinishini amalga oshirmagan.

– Operasiya cheki quydagilar majburiy qayd etilgan holda tushunarli bosmadan chiqarilgan: Operasiya sanasi / vaqt, Karta raqamlari, Avtorizasiya kodi, Operasiyaning muvaffaqiyatli / muvaffaqiyatsiz bajarilganligi va boshqa Tranzaksiya rekvizitlari. Agar Sizga berilgan chek nusxasi ushbu talablarga javob bermasa, kassirdan chekning bosmadan chiqarilishi takrorlanishini so'rang.

Izohlar:

- Hech qachon, hech qanday vaziyatlarda o’z Kartangiz bilan amalga oshirilgan Operasiyalar cheklarini Bankomat / o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish Terminali yoki Siz Karta bo’yicha Operasiyani amalga oshirgan joydagi terminal oldida qoldirib ketmang.
- Agar Bankomatdan Sizning Kartangiz chiqmay tutilib qolsa, Siz ushbu Bankomatga xizmat ko’rsatuvchi bank muassasasiga murojaat qilishingiz kerak (aloqa bog’lash uchun telefon raqamlari Bankomat chekida qayd etilgan bo’lishi kerak). Yoningizda shaxsni tasdiqlovchi hujjat, shuningdek Kartadan foydalanish uchun (agar Siz ishonchli shaxs / Mijoz vakili bo’lsangiz) tegishli ravishda rasmiylashtirilgan vakolatnoma bo’lishi kerak.
- Agar Bankomat / o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish Terminali / terminal Sizning Kartangiz bilan biron-bir Operasiyani haddan tashqari uzoq bajarsa (Bankomat / o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish Terminali Sizga “qotib qolgandek” tuyulsa) Operasiya bajarilishini kutib turishga va Kartani qayta olishga intiling.

“Tenge Bank” ATBda jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingan milliy va xorijiy valyutadagi bank kartalariga xizmat ko’rsatish to’g’risida Ommaviy shartnoma-Ofertaga 2-sonli Ilova

«TENGE BANK» ATBDA JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN KARTOMATLARDAN FOYDALANISH QOIDALARI

I. Umumiy qoidalar

1. «Tenge Bank» ATBda kartomatlardan foydalanish qoidalari (bundan buyon matnda – “Qoidalar”) O’zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi Qonuniga, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O’zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Qaroriga (PQ-6079-sonli 05.10.2022y.), 2021 yil 03 apreldagi “O’zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan bank kartalari chiqarilishi va ulardan foydalanish tartibi to’g’risida”gi 3294-sonli Nizomga, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, Bank ichki normativ hujjatlariga asosan ishlab chiqilgan hamda bank kartalari bilan ishslash asosiy shartlari va tartib-taomillarini belgilaydi.
2. Mazkur Qoidalar Bank Kartomatlarda jismoniy shaxslar tomonidan bank kartalari emissiyasi amalga oshirilishi tartib-taomilini va mexanizmini belgilaydi.
3. Mazkur Qoidalarning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:
 - kartochka infratuzilmasini takomillashtirish;
 - «Tenge Bank» ATB binolarida va binolaridan tashqarida joylashgan o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish qurilmalari ro’yxatini kengaytirish;
 - kartomatlар faoliyatining kerakli darajadagi xavfsizligini ta’minlash.
4. Bankning jismoniy shaxslarga nisbatan bank kartalari emissiyasi bo’yicha muayyan shartlari (komissiya haqi, tariflar va shartlar), bank kartalari bo’yicha operasiyalarni amalga oshirish tartib-taomillari “Tenge Bank” ATBda jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingan milliy yoki xorijiy valyutadagi bank kartalariga xizmat ko’rsatish to’g’risida Ommaviy shartnoma-Ofertada, Bankning boshqa ichki normativ hujjatlarida belgilanadi.

II. Hujjatni yangilash

5. Bozorda yuzaga kelgan vaziyatga va mavjud raqobat muhitiga qarab, mazkur Qoidalar o’zgartirilishi va/yoki to’ldirilishi mumkin, zarur hollarda esa, Bank yangi mahsulotlari / texnologiyalari ishlab chiqilishi va Bank siyosati o’zgarishlariga qarab yangi tahrirda ishlab chiqilishi mumkin. Mazkur Qoidalarga kiritiladigan barcha o’zgartirishlar va /yoki qo’shimchalar yoki yangi tahrirdagi Qoidalar Bank ichki normativ hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

III. Atamalar va ta’riflar

Mazkur Qoidalarda quyidagi asosiy tushunchalar qo’llaniladi:

Bank – «Tenge Bank» ATB (Bosh ofis va bank xizmatlari ofislari / savdo nuqtalari);

Bank kartasi – Bank tomonidan chiqarilgan, to’lov vositasi sifatida foydalaniladigan va o’z egasiga Kartochka hisobvarag’idagi pul mablag’lari qoldig’i doirasida yoki belgilangan limit doirasida va O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari shartlarida milliy va xorijiy valyutada operasiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan mahalliy yoki xalqaro to’lov tizimlari to’lov kartasi;

Bank kartasini blokirovka qilish – Bank kartasi faoliyatini vaqtincha to’xtatib qo’yish yoki bekor qilish chorralari (bekor qilingan holatda Bank tomonidan Bank kartasi xizmat ko’rsatishga taqdim qilinganida uning olib qo’yilishi nazarda tutiladi);

Bankomat – pul qabul qilish/berish, valyuta ayrboshlash operasiyalari, bank hisobvaraqlari axborot berish, naqd pulsiz to’lovlarini amalga oshirish hamda bank kartalaridan foydalanib va foydalanmagan holda boshqa Bank xizmatlaridan foydalanish uchun mo’ljallangan o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish elektron-mexanik qurilma;

Kartochka biznesi departamenti – Bankning emissiya va evkayring faoliyatini ta’minlaydigan Bank tarkibiy bo’linmasi. Mazkur Qoidalalar doirasida – o’ziga o’zi xizmat ko’rsatish qurilmalari (bankomatlar, kartomatlar va h.k.) montaj qilinishi va tegishlichcha ishlatalishini ta’minlaydi;

Ishonchli raqam – ro’yxatdan o’tkazish va Bank mobil ilovasiga ularish uchun foydalaniladigan Mijoz mobil telefoni shaxsiy raqami. Ishonchli raqam Bank tomonidan Mijoz bilan axborot va moliyaviy o’zaro hamkorlik uchun ishlatalishi mumkin;

Qo’shimcha karta – Mijoz nomiga qo’shimcha ravishda rasmiylashtirilgan va Kartochka hisobvarag’idagi pul mablag’lari doirasida yoki dastlab chiqarilgan Bank kartasi biriktirilgan belgilangan limit doirasida operasiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradigan bank kartasi;

Masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish tizimi – Mijoz tomonidan telekommunikasiya tizimlaridan foydalanib masofaviy usulda uzatiladigan (olinadigan) elektron farmoyishlar asosida taqdim qilinadigan Bank xizmatlari majmui;

Noxush hodisa – Mijoz tomonidan Kartomatdan foydalanib operasiyalar amalga oshirilishi davomida yuz bergen hodisa natijasida texnik xususiyatli sabablar bo’yicha Bank kartasi Kartomat ichida qolgan va Mijozga berilmagan vaziyat;

Kartomat – Mijozga Bank xodimlari ishtiropkisiz va qog’oz tashuvchi vositada hujjatlар rasmiylashtirilmagan holda, aynan esa hujjatlarni Bank mobil ilovasida elektron shaklda rasmiylashtirish orqali bank kartasining darhol chiqarilishini (emissiyasini) amalga oshirish imkonini beradigan avtomatlashtirilgan elektron-texnik qurilma;

Mijoz – Bank mobil ilovasidan foydalanuvchi hisoblangan va unda raqamli identifikasiyalashdan o’tkazilgan jismoniy shaxs;

Kartochka hisobvarag’i – pul mablag’laridan foydalanishni Bank kartasi orqali amalga oshirish mumkin bo’lgan Mijozning bank hisobvarag’i;

Kontakt-markaz – Mijozga telefon, onlayn-chat, elektron pochta orqali amalga oshirilgan operasiyalar, Bank kartasini blokirovka qilish va h.k. to’g’risida axborot taqdim qilish shaklida masofaviy xizmatlar ko’rsatadigan Bank bo’linmasi;

Telefon so’zlashuvlari uchun nazorat so’zi – Mijoz shaxsi va vakolatlarini tasdiqlash uchun mo’ljallangan shartli so’z yoki belgilar to’plami. Telefon so’zlashuvlari uchun parol Mijoz tomonidan jismoniy shaxslar uchun milliy valyutada bank kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko’rsatish uchun arizada qayd etiladi;

Komprometasiya – to’lov tizimiga kirish uchun foydalaniladigan Parol yoki tasdiqlash vositalari faqat Mijozning ularidan foydalanish huquqiga ega shaxsi tomonidan ishlatalayotganligiga ishonch yo’qotilishi;

Operasiyalar bo’yicha limit – Kartalardan va/yoki masofaviy bank xizmatlarini ko’rsatish tizimidan foydalanib (Bankda bunday imkoniyat bo’lgan holatda) amalga oshiriladigan Operasiyalar (Topshiriqlar) amalga oshirilishi uchun Bank / Mijoz tomonidan belgilangan cheklov;

Xalqaro to'lov tizimi (XTM) – o'zaro hisob-kitoblar ishtirokchilari tizimlari va ularning agentlari shaklida taqdim qilingan, o'zaro muayyan qoidalar bilan birlashgan va o'zaro munosabatlarni to'lov kartalari texnologiyalaridan foydalanish asosida tashkil qiladigan Visa International, MasterCard Worldwide, American Express, China UnionPay va h.k. xalqaro to'lov tizimlari;

Bank mobil ilovasi – mobil telefon va/yoki planshetli kompyuterga va/yoki Bank dasturiy ta'minoti o'rnatilishini qo'llab-quvvatlaydigan va Mijozga bank operasiyalarini amalga oshirish imkonini beradigan boshqa qurilmaga o'rnatiladigan Bank dasturiy ta'minoti;

Murojaatnama – Mijozning tegishli Bank bo'linmasiga Texnik to'xtalish sababini aniqlash va/yoki Noxush hodisani bartaraf etishga doir ishlarni tashkillashtirish va/yoki o'tkazish to'g'risida iltimos bilan yuborilgan, Kartomat joylashgan manzil, operasiya sanasi va vaqt va h.k. ma'lumotlarni o'z ichiga olgan og'zaki yoki yozma shakldagi murojaati;

PIN-kod – Kartochka hisobvarag'idagi pul mablag'laridan foydalanish huquqini va bank kartasi egasining pul mablag'laridan foydalanishga ruxsatini tasdiqlaydigan shaxsiy identifikasiyalash raqami;

Shaxsiy ma'lumotlar – elektron, qog'oz tashuvchi va (yoki) boshqa moddiy tashuvchi vositalarda qayd etilgan Mijozga tegishli yoki uni identifikasiyalash imkonini beradigan axborot;

Dasturiy-texnik ishlar – Kartomat bilan amalga oshiriladigan ishlar turlari (profilaktik, installyasiya, sozlash, tashxislash, ta'mirlash, test va transportirovka qilishga tayyorlash ishlari);

Foydalanuvchi – axborot-bank xizmatlarini amalga oshirish uchun Bank mobil ilovasidan foydalanadigan jismoniy shaxs;

Mijozlarga xizmat ko'rsatish punkti / Bank xizmatlari ofislari / Savdo nuqtasi – O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va Bankning ichki normativ hujjatlariga asosan yuridik shaxs hisoblanmagan, shu jumladan Bosh ofis joylashgan manzildan tashqarida ham joylashgan, Bank nomidan bank operasiyalarini amalga oshiradigan va Bank tomonidan unga berilgan vakolatlar doirasida faoliyat yuritadigan Bank bo'linmasi;

Bank kartasini blokirovkadan chiqarish – Bank tomonidan Bank kartasi faoliyatini tiklash bo'yicha choralar qabul qilinishi;

Bank Tariflari – Bank tomonidan tasdiqlangan, Bank tomonidan Mijozga xizmat ko'rsatish shartlarini, shu jumladan stavkalar, komissiyalar, neustoykalar, foizlarni va h.k. belgilaydigan hujjatlar;

Tranzaksiya – Mijozning o'z Kartochka hisobvarag'i bilan va/yoki Bank kartasi orqali operasiyasi, shu jumladan pul mablag'lari to'lovi, olinishi va boshqa operasiyalar amalga oshirilishi;

Texnik to'xtalish – Kartomat ishidagi shtatdan tashqari vaziyat natijasida Kartomatda operasiya xato bilan bajarilgan;

«SMS-banking» xizmati – Mijozga ishonchli raqamga tushadigan SMS-xabarnomalar yordamida to'lov kartasi bo'yicha pul harakatlanishidan tun-kun xabardor bo'lishni ta'minlaydigan servis;

Raqamli identifikasiyalash – raqamli biometriya vositalari asosida (MyID yordamida) mobil ilovadan masofaviy foydalanuvchini identifikasiyalangan sifatida e'tirof qilish va foydalanuvchini «Tenge Bank» ATB Mijozi shaklida ro'yxatdan o'tkazish imkonini beradigan qaror;

Elektron xabarnoma – Bank tomonidan internet va/yoki mobil aloqa orqali Mijozning mobil telefonlariga (SMS, PUSH) va/yoki elektron pochtasiga standart shaklda yuboriladigan qisqa xabarlar;

Elektron hujjat – axborot elektron-raqamli shaklda taqdim qilingan hujjat;

QR-kod – kartomat bilan Mijozni identifikasiyalash, shuningdek bank kartasini chiqarish amalga oshiriladigan mobil ilovadagi qulay va xavfsiz servis;

3D-Secure/Secure Code – ruxsatsiz tranzaksiyalar xavfini kamaytirish va internetda to'lovlar himoyalanganligini ta'minlash maqsadida Visa International va MasterCard Worldwide xalqaro

to'lov tizimlari tomonidan ishlab chiqilgan va on-line rejimida internetda bank operasiyalarini amalga oshirish jarayonida Mijozni identifikasiyalash uchun foydalaniladigan texnologiya; **CVV2-kod** («CVV2» – **Card Verification Value 2**) – bank kartasiga beriladigan (CVV2-kod – Visa bank kartalari bo'yicha, CVC2-kod – MasterCard bank kartalari bo'yicha) va internet tarmog'ida tovarlar va xizmatlar to'lovida Karta egasini identifikasiyalash uchun mo'ljallangan identifikasiyalash uch xonali kodi.

IV. Asosiy shartlari

- 6.1. Mazkur Qoidalar talablari Bank binolari hududida va undan tashqarida o'rnatilgan Kartomatlar xizmatlaridan foydalanib amalga oshiriladigan Mijozlar operasiyalari uchun qo'llaniladi.
- 6.2. Mazkur Qoidalar doirasida Mijoz tomonidan Kartomatlar orqali mahalliy va xalqaro to'lov tizimlari bank kartalarini chiqarish bo'yicha operasiyalar amalga oshirilishi mumkin.
- 6.3. Mijoz tomonidan Kartomatlardan foydalanib operasiyalar 24/7 rejimida (tun-kun va haftaning istalgan kunida) amalga oshiriladi, Texnik to'xtalishlar yuzaga kelgan vaqtida va/yoki Noxush hodisalarini bartaraf etish maqsadida aniqlashga doir dasturiy-texnik ishlari o'tkaziladigan holatlar bundan mustasno.
- 6.4. Kartomatlarni texnik ta'minlash, yuzaga kelgan Noxush hodisalar yuzasidan Murojaatnomalarni qabul qilish va ishslash, ularni o'rganish bo'yicha majburiyat Kartochka biznesi departamentiga, shuningdek Bank Savdo nuqtalarida emissiya va ekvayring bo'limlariga Bank ichki normativ hujjatlariga muvofiq va taqdim qilingan vakolatlar doirasida yuklatiladi.
- 6.5. Noxush hodisalar yoki Kartomatlar ish rejimi buzilishi yuzaga kelgan holatda, Mijoz Bank bo'linmasiga yoki tun-kun qo'llab-quvvatlash xizmatiga quyidagilar orqali murojaat qilishga haqli:
 - Kontakt-markazning qisqa raqami: 1245;
 - Bankning ishonch telefoni: +(99871) 203-00-65;
 - elektron pochta orqali quyidagi manzil bo'yicha: info@tengebank.uz;
 - Telegramda bot orqali quyidagi manzil bo'yicha: @tengebankSupport.

V. Kartomatlar orqali bank kartalarini chiqarish tartibi

- 7.1. Faqat raqamli biometriya vositalari qo'llanilgan holda Bank bo'linmasida yoki masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish tizimi kanallarida (mobil ilovasida) identifikasiyalangan Bank Mijozlari kartomatda bank kartasini olishlari mumkin.
- 7.2. Bank kartasini (shu jumladan, Qo'shimcha kartani) chiqarish uchun ariza Bank mobil ilovasi orqali "Karta" bo'limida beriladi.
- 7.3. Mijoz Bank mobil ilovasida Elektron oferta bilan tanishib chiqadi va uni akseptlaydi.
- 7.4. Bankning amaldagi Tariflariga asosan Mijozdan Bank kartasi chiqarilganligi uchun komissiya haqi olinishi mumkin.
- 7.5. "Kartomat orqali" karta olish usuli tanlovi amalga oshiriladi va mobil ilovada QR-kod belgilanadi.
- 7.6. Bank kartomatlaridan biri oldiga kelib Mijoz kartomat ekranida to'lov tizimini tanlaydi, QR-kod tasviri aks ettirilgan mobil telefonni Kartomatda o'rnatilgan bevosita QR-kodni o'qiydigan qurilma ustiga qo'yadi va bu orqali Bank kartasi chiqarilishiga buyruq beradi.
- 7.7. Agar Kartomat QR-kodni o'qiy olmasa, Mijozga yuzaga kelgan xato va uni hal qilish usuli to'g'risida xabarnoma keladi.
- 7.8. Kartomat tomonidan Bank kartasi chiqarilish jarayoni 1-3 daqiqa mobaynida amalga oshiriladi.
- 7.9. Mijozga Bank avtomatlashtirilgan tizimida avtomatik ravishda mijoz kartochkasi va kartochka operasiyalarini hisobga olish hisobvarag'i (Kartochka hisobvarag'i) ochiladi, shuningdek «SMS-banking» xizmati ulanadi.
- 7.10. Mijozga Bank kartasi berilishidan oldin Kartomat ekranida yoki mobil ilovada Bank kartasini mustaqil ravishda faollashtirish tartibi to'g'risida axborot aks ettiriladi.
- 7.11. Mijoz Kartomatda Bank kartasini faollashtirish tartibi to'g'risidagi axborotni akseptlash orqali avtomatik ravishda 3D-secure xizmatlari (xalqaro to'lov tizimlari kartalarida) ulangan holda shaxsiy Bank kartasini oladi. Mijoz Bank tomonidan tasdiqlangan Bank kartasini olish

to'g'risida jurnalni imzolamagan holda Kartomatdan kartani olib ketadi, chunki berilgan bank kartalari hisobi bevosita Kartomat tomonidan elektron shaklda yuritiladi.

7.12. Kartomatda Bank kartasini olishda Mijoz kartaning old tomonida qayd etilgan familiyasi va ismi to'g'rilingini tekshirishi kerak. Ular yozilishida xatolar aniqlangan holatda, bu haqda Bankning istalgan savdo nuqtasiga yoki tun-kun qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish orqali Bankni xabardor qilishi kerak.

7.13. Bank kartasini faollashtirish Bank mobil ilovasida amalga oshirilishi mumkin, buning uchun Mijoz:

- Bank mobil ilovasidagi «Kartalar» bo'limida ro'yxatdan kartani tanlaydi;
- PIN-kodni o'rnatish uchun kartani bosadi;
- PIN-kodni o'rnatish to'g'risida o'z harakatini tasdiqlaydi;
- PIN-kodni Bank mobil ilovasi talablariga asosan o'rnatadi;
- PIN-kod muvaffaqiyatli o'rnatilganligi va yaqindagi Bankomatda balansni tekshirish to'g'risida PUSH-xabarnoma oladi.

7.14. Kartomat tomonidan Bank kartasi berilishi amalga oshirilmagan holatda, Mijoz Bankning tun-kun qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishi kerak.

7.15. Noxush hodisani bartaraf qilish maqsadida Mijoz Murojaatnomani taqdim qiladi va Bank kartasini chiqarishga urinish to'g'risida tushuntirish xati beradi, shuningdek Kartomat joylashgan manzilni, operasiya sanasi, vaqt va h.k. ma'lumotlarni ko'rsatadi.

7.16. Noxush hodisani o'rganish qonun hujjatlari va Bank ichki hujjatlari talablariga asosan Murojaatnoma tushgan kundan e'tiboran 10 (o'n) kun mobaynida amalga oshiriladi.

7.17. Noxush hodisa sabablari aniqlanganidan va Bankning tegishli tarkibiy bo'linmalari xodimlari tomonidan tasdiqlanganidan so'ng imkoniyat bo'lgan holatda Bank kartasini chiqarish amalga oshiriladi.

VI. Javobgarlik

8.1.Bank, zarur hollarda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, Mijoz tomonidan o'tkazilayotgan operasiyalar qonuniyligini tekshiradi va Kartomatlar orqali Bank kartalarini chiqarish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq kerakli tasdiqllovchi hujjatlarni talab qilib oladi.

8.2.Bank xodimlari, amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, o'z vakolatlari doirasida mazkur Qoidalarda belgilangan normalar buzilganligi uchun javobgar bo'ladir.

8.3.Mijoz Bank mobil ilovasidan foydalanish xavfsizlik qoidalari buzilganligi va uchinchi shaxslarga Bank Kartomatida Bank kartasini olish uchun QR-kod berilganligi uchun javobgar bo'ladi.

8.4.Bank tomonidan axborot xavfsizligi va himoya qilinishini ta'minlash, shuningdek xizmat ko'rsatish sifatini tegishli darajada saqlash uchun Mijoz tomonidan Bank Kontakt-markazi xizmatlaridan foydalanish zaruriyati maqsadlarida Mijoz qo'shimcha xabardor qilinmagan holda telefon orqali suhbatlar yozib olinishi mumkin.

“Tenge Bank” ATBda jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingan milliy va xorijiy valyutadagi bank kartalariga xizmat ko’rsatish to’g’risida Ommaviy shartnama-Ofertaga 4-sonli ilovaga 1-sonli Namuna



«Tenge Bank» ATB

Bank bo’linmasi nomi

ARIZA

_____dan

Mijoz yoki uning qonuniy vakili familiyasi, ismi va otasining ismi

Men Sizdan quyida qayd etilgan bank kartalarini, shuningdek, zarur hollarda, tegishli hisobvaraqlarni ochishni yoki yopishni so’rayman:

CHIQARISH

Jismoniy shaxs Uzcard
Uzcard ish haqi loyihasi
Individual dizayn

QAYTA CHIQARISH

Jismoniy shaxs HUMO
HUMO ish haqi loyihasi
Individual dizayn

YOPISH

Mastercard Start (UZS)
Mastercard Start (USD)
Individual dizayn

Bank kartasini qayta chiqarish sababi **
Qayta chiqarilgan / yopilayotgan bank kartasi raqami:**

Buzilgan/
Yo’qotilgan

Yaroqlilik muddati
tugagan

F.I.Sh.
o’zgarishlari

Shuningdek, Sizdan quyidagi
qo’shimcha xizmatlarni so’rayman:
SMS-xabarnoma

Ulanish

Uzib qo’yish

Mobil ilova / Shaxsiy kabinet

MIJOZ TO’G’RISIDA AXBOROT:

F.I.Sh.*:

Pasport ma’lumotlari*:

Tug’ilgan sana*:

Manzili*:

Ish joyi:

Telefon raqami*: + 9 9 8 () - - -
SMS-ma'lumotlarni yuborish uchun mobil telefon raqami: Yuqoridagi raqamdan foydalaning + 9 9 8 () - - -

E-mail: [REDACTED]
Telefon so'zlashuvlari uchun nazorat so'zi* [REDACTED]

Men "Tenge Bank" ATBda jismoniy shaxslar uchun emissiya qilingan milliy va xorijiy valyutadagi bank kartalariga xizmat ko'rsatish to'g'risida Ommaviy shartnoma-Oferta shartlari va ushbu ariza to'ldirilgan paytda Bankda amaldağı Bank Tariflari bilan tanishib chiqdim va ularga roziman, shuningdek bonuslar va keshbeklar olish uchun o'z roziligidagi bildiraman va ehtimoliy soliqlar to'lovi bo'yicha majburiyatlarini o'zimga qabul qilaman.

Bank kartasining amal qilish muddati tugaganidan so'ng va kartochka hisobvarag'ida mablag'lar qolmagan holatda, Sizdan kelgusida kartochka hisobvarag'ini yopishni va men bilan tuzilgan shartnomani bekor qilishni so'rayman.

Ariza to'ldirilgan sana: _____

Karta egasining imzosi: _____

XODIM / TALABA TO'G'RISIDAGI AXBOROTNING TASDIQLANISHI ***

Biz yuqorida qayd etilgan Mijoz tashkilotimiz xodimi / talabasi ekanligini tasdiqlaymiz.

Tashkilot nomi: _____

Sana: " ____ " 20 ____ y. Rahbar imzosi: _____ M.O'.

BANK QAYDI:

Ariza qabul qilgingan sana: _____ Arizani qabul qilgan xodim imzosi: _____

Boshqa qaydlar: _____

* - bank kartasini rasmiylashtirishda va/yoki qo'shimcha xizmatlarni ulashda talab qilinadi;

** - faqat bank kartasini yopishda yoki qayta chiqarishda talab qilinadi;

*** - ish haqi bank kartasini berish uchun ariza bilan faqat birinchi marta murojaat qilinganida to'ldiriladi.